
Tarixiy g'alaba! Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev – ilk farg'onalik Olimpiada chempioni!!!

Fransiyada bo'lib o'tayotgan 2024 yilgi yozgi Olimpiada o'yinlarining boks bo'yicha musobaqalarida Farg'ona viloyati vakili, jahon chempioni, 23 yoshli Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev oltin medalni qo'lga kiritib, Olimpiada chempioni bo'ldi!

Bu ulkan g'alaba Farg'ona viloyati sportchilarining Olimpiada o'yinlari tarixidagi ilk chempionligi bo'ldi! 71 kg vaznda Olimpiada o'yinlarida ishtirok etgan Asadxo'ja, finalda meksikalik Marko Verde Alvaesga qarshi ringga ko'tarilib, ishonchli g'alaba qozondi!

2024-08-10 10:17:38